

O'ZBEKISTONDA CHET TILI O'QITUVCHILARI KASBIY KOMPETENSIYASIGA QO'YILGAN DAVLAT STANDARTI TALABLARI

O.X.Ibrohimova
ADChTI doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqola hozirda ta'lim sohasida dolzarb masalalardan biriga aylangan chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi mavzusini talqin etadi. O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standarti va boshqa ta'limga oid hujjatlardagi chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasiga qo'yilgan talablar yoritib berilib, ularga mufassal izoh taqdim etiladi.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, kasbiy kompetensiya, davlat ta'lim standarti, lingvistik kompetensiya, leksik kompetensiya, grammatik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya.*

Abstract. *This article interprets the topic of professional competence of foreign language teachers, which has become one of the most urgent issues in the field of education. The requirements for the professional competence of foreign language teachers in the state education standard and other educational documents of the Republic of Uzbekistan are illustrated and a detailed explanation is provided.*

Key words: *competence, professional competence, state education standard, linguistic competence, lexical competence, grammatical competence, communicative competence, pragmatic competence, sociolinguistic competence.*

Аннотация. *В данной статье трактуется тема профессиональной компетентности учителей иностранного языка, ставшая одной из наиболее актуальных проблем в сфере образования. Изложены требования к профессиональной компетентности учителей иностранного языка в государственном образовательном стандарте Республики Узбекистан и других образовательных документах и даны подробные пояснения.*

Ключевые слова: *компетентность, профессиональная компетентность, государственный образовательный стандарт, лингвистическая компетентность, лексическая компетентность, грамматическая компетентность, коммуникативная компетентность, прагматическая компетентность, социолингвистическая компетентность.*

So'nggi paytlarda Vatanimizda chet tillariga bo'lga e'tibor salmoqli ravishda kengayib, nafaqat amaliy tarzda balki ta'limga oid qonun va hujjatlarda ham o'z aksini topib, chet tillarni ommalashish jarayoni tizimli tarzda amalga oshirilmoqda. Xususan, uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standarti (DTS)da "Chet tillari bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar"[1] qat'iy me'yorlar bilan belgilangan bo'lib, unda A1, A2, B1, B2

va C1 darajalar uchun qanday kompetensiyalarga ega bo'lish alohida jadvallar asosida keltirilgan. Chet tili o'qituvchilari uchun hozirda B2 daraja (umumiy o'rta maktab, kollej o'qituvchilari), biroq 50 foiz ustama olish uchun esa C1 (mukammal) darajaga ega bo'lish majburiy etib belgilandi. Qolaversa, 2024-yildan oliy o'quv yurtlarida ishlovchi chet tili mutaxassislaridan ham C1 darajada bilimga ega bo'lish qat'iy talab qilinmoqda.

Xorijiy tillar bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimi ta'minlash uchun davlat ta'lim standarti o'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Vatanimizda ta'limning barcha bosqichlarida ma'lum bir xorijiy tilni o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarda o'sha tildagi til kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Jumladan, chet tili so'zlashiladigan davlat madaniyati, undagi kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda erkin kommunikativ faoliyat olib borishini ta'minlash asosiy maqsad hisoblanadi. Bu faoliyatni biz chet tili kommunikativ kompetensiyasi deb atashimiz mumkin. Kommunikativ kompetensiyaga batafsil ta'rif beradigan bo'lsak, u ma'lum bir chet tili bo'yicha olingan bilim, ko'nikma va malakalarni og'zaki muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatidir.

Davlat ta'lim standartida tilga oid kompetensiyalar va har bir til darjasi uchun ularning mazmuni ham keng atroflicha yoritilgan bo'lib, ular quyidagi guruhlariga ajratgan holda berilgan:



Hozirda amaldagi ta'limga oid qonun hujjatlari asosida chet tili o'qituvchilaridan talab qilingan daraja asosan B2 (yuqori o'rta) daraja bo'lganligi sababli DTSdagi B2 darajaga qo'yilgan kompetensiyaviy talablarni ko'rib chiqamiz.

Dastlab lingvistik kompetensiyalarni ko'rib chiqsak, uning tarkibiga kiruvchi nutqiy kompetensiyalardan o'qituvchilar ma'ruzalar, taqdimotlar, munozaralarni, radio va telereportajlar, yangiliklar, intervyular, hujjatli filmlarni, e'lonlarni va o'rganilayotgan til egasining tasmasiga yozilgan ovozini (filmlar, hujjatlar, nutqlar va hokazo) hamda o'rganilayotgan til egalari o'rtasidagi ijtimoiy muloqotni tinglab tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu orqali ularda umumiy mazmuni tushunish uchun tinglash, tafsilotlarni tushunish uchun tinglash va ayrim ma'lumotlarni olish uchun tinglash kabi ko'nikmalar rivojlanadi. Qolaversa, ular ma'lum vazifa yoki maqsad bo'yicha muloqotga kirishish, ijtimoiy muloqot va norasmiy

suhbatga kirishish, o'z mutaxassislik sohasiga oid bo'lgan va bo'lmagan rasmiy va norasmiy muhokamalarda qatnashish, muhokamaga raislik qilish va olib boorish, intervyular, muzokaralar, telefon qo'ng'iroqlari, ma'ruza tayyorlash, sohaga oid fikrlarni rivojlantirish, fikr bildirish va asoslash, e'lonlar, ma'lum mavzu bo'yicha taqdimot qilish, maqolani umumlashtirish va xulosa qilish kabi gapirish ko'nikmalariga ega bo'lishlari darkor. Nutqiy kompetensiyaning yana bir turi yozish ko'nikmasi bo'yicha yozishmalar (rasmiy va norasmiy xatlar hamda xabarlar), maxsus ma'lumotlar (xotiralar, qaydlar, taqrizlar, rezyumelar va hokazo), esse (bayon va insholar), xulosalar, tadqiqot ishlari (maqolalar, bitiruv malakaviy ishi va boshqalar)ni fikrini erkin ifodalagan yoki o'z munosabatini bildirgan holda yoza olish qobiliyati talab qilinadi.

Lingvistik kompetensiya tarkibiga kiruvchi leksik kompetensiyalardan kasbiy leksika va atamalarni kontekstda qo'llay olish, umumiy qisqartmalarni kengaytirish, so'z yasalishi (qo'shma so'zlar va affiksatsiya), o'zlashma so'zlar (baynalminimal so'zlar) va o'zakdosh so'zlar, antonimlar, sinonimlar va boshqa umumleksik munosabatlar haqida bilimga ega bo'lib ularni farqlay olish va erkin qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

Grammatik kompetensiyalar nuqtayi nazaridan esa o'tilgan grammatik material (fe'l zamonlari, modal fe'llar, sifat va ravishlarning qiyosiy darajalari, determinativ so'zlar, predloglar va hokazo)ni kundalik va sohadagi kontekstlarda to'g'ri qo'llay olish, kommunikativ vaziyatlarda murakkab grammatik va sintaktik strukturalarni ishlata olish, mos bog'lovchi so'zlarni qo'llay olish, o'z sohalariga oid diskurs modellarining grammatik, leksik va mazmun jihatdan qanday tuzilganini tushunish maqsadida tahlil qila olish kabi malaka va ko'nikmalar B2 darajaga xos hisoblanadi.

Chet tili o'qituvchilarning sotsiolingvistik kompetensiyasiga O'zbekiston va tili o'rganilayotgan chet mamlakatlar madaniyatlari misolida (ijtimoiy va ta'lim doiralarida) madaniyatlararo muloqotni chuqurroq tushunib yetish va uning muloqot bilan bog'liq xususiyatlari, jumladan, salomlashish, murojaat shakllari, xushmuomalalik kabi jihatlarni inobatga olgan holda erkin muloqot qila olish, turli madaniyatlardagi kommunikatsiyaning noverbal elementlari: xatti-harakatlar, imo-ishoralarni bilish va foydalana olish hamda elektron muloqotlarning chet tilida yozish kabi ko'nikmalar kiradi.

So'nggi pragmatik kompetensiyalar esa taqdimot qilish mahoratini yanada takomillashtirish, fikrlarni mos tarzda og'zaki va yozma nutqda mantiqan bog'lash, turli ijtimoiy, ta'lim va mutaxassislik doiralarida mos ravishda tilni tegishli rasmiylik darajada qo'llay olish, muloqot jarayonida nutqni bo'lish, aniqlik kiritish, boshqacha talqin etish, jummalarni tuzatish, to'ldirish va boshqa strategiyalarni qo'llay olish malakasini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida olimlar kompetensiyaning bir qator turlarini aniqlashdi, biroq nazariyalar, turli jihatdan yondashuvlar sabab uni kategoriyalash turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha

xarakterlandi. Binobarin, B.A. Musoyeva CEFR (Common European Framework Reference – Umumyevropa talim standarti) aosida kompetensiyani 2 turga ajratadi: umumiy kompetensiyalar va kommunikativ kompetensiyalar. U umumiy kompetensiyalarni til faoliyati uchun xizmat qiladigan lekin tilga xos bo'lmagan kompetensiyalar deb ta'riflaydi. Ularga deklarativ bilim (ing. declarative knowledge), mahorat va nou-xau (ing. skills and knowhow), ekzistensial kompetensiya (ing. existential competence) va o'rganish qobiliyati (ing. ability to learn) kiradi.[2] Ularning har biriga alohida ta'rif beradigan bo'lsak, deklarativ bilim u tajriba (emripik bilim) va akademik ta'lim natijasida hosil bo'lgan bilim hisoblanadi. Deklarativ bilimga madaniyatlararo xabardorlik (ing. intercultural awareness/knowledge) va ijtimoiy-madaniy bilimlar (ing. sociocultural knowledge) kiradi. Bizga biroz notanish bo'lgan ekzistensial kompetensiya (ing. existential competence) individual shaxsiy xususiyatlar, sifatlar, kishining xulq-atvori va munosabatlarning yig'indisi sanaladi.

Yosh olimlarimizdan R. Fayzullayev kompetensiyani turlarga ajratishda quyidagicha yondoshgan (A. Xutorskoy nazariyasiga asoslanib): qadriyatiy-mazmuniy kompetensiya, umummadaniy kompetensiya, o'quv-bilish kompetensiyasi, axborot kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy-mehnat kompetensiyasi, o'zini-o'zi takomillashtirish kompetensiyasi.[3]

Yurtimiz olimlari N. Ataeva, M. Salaeva va S. Hasanov tomonidan yaratilgan "Umumiy pedagogika" o'quv qo'llanmasida pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat sifatida talqin etilgan va unga bir qancha ta'riflar berilgan. Ulardan biri: "Pedagogik mahorat – o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan yondosh sohalarni yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan o'qituvchi-tarbiyachi"[4].

Ta'limga oid boshqa hujjatlarda ham o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga oid bir qator jumlar keltirilgan. Xususan, "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom"da xalq ta'limi tizimidagi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoniga tinglovchining alohida o'quv modullari bo'yicha o'qishi va ballarda ifodalanadigan o'zlashtirishini o'z ichiga olgan ta'limning kredit-modul tizimini joriy qilish, xalq ta'limi xodimlarining shaxsiy kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o'sishi jarayonini qamrab olgan "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan.[5] bundan tashqari, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida tinglovchilarning an'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlarini joriy etish tartibi belgilangan bo'lib, o'qituvchilar onlayn va oflayn tarzda muntazam bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish imkoniyatiga egal.

O'zbekiston ta'lim tizimidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirishning maqsadi — pedagoglarning egallab turgan lavozimlari, mutaxassisligi yoki dars beradigan fanlari bo'yicha kasbiy va pedagogik mahorati doimiy ravishda o'sib borishini, ularning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o'qitishning interaktiv usullari bo'yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlash hamda ularni davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va sohaga oid qonunchilik bilan muntazam tanishtirib borishdan iborat. Asosiy vazifalari esa xodimlarning doimiy kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan ta'lim muhitini yaratish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini singdirish va xodimlarning qobiliyatini rivojlantirish hamda yangi bilimlar berish orqali o'z ustida mustaqil ishlash va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, xodimlarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi asosida kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirishning asosiy manbai sifatida xodimlarning kasbiy rivojlanishini, tashabbuskorligini, ilmiy tadqiqotlarga intilishini va ijodiy mahoratini rag'batlantirish hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standarti xalqaro standartlarga monand tarzda chet tili o'qituvchilariga XXI asr talabidagi zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni kiritib, ularni global miqyosdagi yetuk mutaxassis bo'lishlari uchun maqsad va vazifalarni belgilab qo'ygan. Hozirda davlat ta'lim muassasalarida ta'limga oid yangi hujjatlarda belgilangan bilim va kompetensiyalarga ega o'qituvchilargina ishlay olishi ko'rsatilmogda va bu jarayon barcha chet tili o'qituvchilaridan zamon bilan hamnafas tarzda talab darajasidagi bilim ko'nikmalarga ega bo'lish uchun uzluksiz ta'lim tizimi vositasida pedagogik rivojlanish uchun izlanishlar va o'z ustida ishlashni taqozo etadi. Mazkur jarayon Vatanimizda chet tillarini yanada rivojlanishini ta'minlab, xalqaro miqyosdagi o'rnini yuksaltirishga xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINING CHET TILLAR BO'YICHA DAVLAT TA'LIM STANDARTINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.05.2013 yildagi 124-son.

2. A.B. Musoyeva "Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy mahoratini CEFR orqali shakllantirish va rivojlantirish". Diss. UDK 372.862.075.11. Samarqand, 2022. – 59 b.

3. R. Fayzullayev "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetentligini modulli-reyting tizimi asosida takomillashtirish". Diss-2019/49/40. UDK: 37:377:377.8



4. Ataeva N., Salaeva M va Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari), O‘quv qo‘llanma. II kitob. H. Boboevnnnr umumiy tahriri asosida. -T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – B. 736.

5. “XALQ TA’LIMI XODIMLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TASHKIL ETISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.01.2022 yildagi 25-son qarori.